


2019-yil yanvar-may oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanganligi - jamiyatning muvaffaqiyatli rivojlanishining asosidir. Xizmatlar sohasining o'sish omili bo'lib, ijtimoiy ehtiyojlar tizimidagi yuz beradigan o'zgarishlar hisoblanadi. Texnika, texnologiya, ishlab chiqarish tuzilmalarining murakkablashishi, aholi turmush darajasining oshishi, shuningdek, insonning o'zini mukammallashtirishi, ya'ni ta'lim va madaniyat darajasini oshirishi hisobiga ishlab chiqarish va aholi ehtiyojlari izchil ravishda kengaytirilmoqda. Ushbu sabablarning umumiyligi ta'siri sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohalari o'rtaida resurslar va mahsulotlar taqsimotidagi nisbatning sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi.

2019-yil 1-iyun holatiga ko'ra respublikamizda 13,7 mingta xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar qayd etilib, ularning umumiyligi (21,2 ming birlik) sonidagi ulushi 64,6 % ni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 17,1 % ga oshdi.

2019-yil 1-iyun holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyligi sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




2019-yil 1-iyun holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsata-yotgan korxona va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (36,5 %) tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 11,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil 1-iyun holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 9,3 % ga yetdi.


Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 1,5 % ga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-iyun holatiga xizmatlar sohasida 11,0 mingta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo sohasida - 32,4 %, tashish va saqlash - 9,9 %, yashash va ovqatlanish sohasida - 9,4 %, sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 4,1 %, axborot va aloqa - 1,9 %, boshqa turlarda - 42,3 % korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 543,8 mlrd. so'mga oshib, 2915,0 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,2 % ni tashkil etdi.


2019-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari 32,2 % ulush bilan yetakchi o'rinni egallaydi. 2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan ularning hajmi 139,6 mlrd. so'mga oshdi.

Bundan tashqari, eng katta ulush transport xizmatlari (24,9 %), moliyaviy xizmatlar (13,9 %), aloqa va axborotlashtirish (4,9 %), ta'lif sohasidagi xizmatlarda (4,6 %), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlarida (4,3 %) kuzatildi.

2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan ayrim xizmat turlari hajmining oshishi, mlrd. so'm




**2019-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	2915040,5	113,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	144090,9	110,2
Moliyaviy xizmatlar	404766,2	178,8
Transport xizmatlari	724805,8	104,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	660315,1	101,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	125554,4	104,9
Savdo xizmatlari	938418,8	104,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	78922,7	103,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	133685,8	144,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	53521,4	109,8
Ijara xizmatlari	76377,0	101,2
Kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	64238,1	103,3
Shaxsiy xizmatlar	61056,2	103,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	34396,1	127,6
Boshqa xizmatlar	75207,1	103,4

Kredit siyosati bo'yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o'sishiga imkoniyat yaratdi. 2019-yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 178,8 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lif sohasidagi xizmatlar (144,8 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (127,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (110,2 %) qayd etildi.

2019-yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Ma'lumot uchun: 2018-yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi 15,6 % ni, ta'llim sohasida – 11,9 % ni, me'morchilik sohasidagi xizmatlarda – 15,7 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida - 3,2 % ni tashkil etgan.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rinni tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2019-yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlari hajmi 938,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 32,2 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-may oylarida savdo xizmatlarining tarkibi, %




Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, 2019-yil yanvar-may oylarida uning ulushi 79,5 % ni tashkil etdi.

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 13,9 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiyligi xizmatlar hajmidagi ulushi 6,6 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 139,6 mlrd. so'mga oshdi.

2019-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida savdo xizmatlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahrida (391,9 mlrd. so'm), G'ijduvon (171,8 mlrd. so'm), Buxoro (45,7 mlrd. so'm), Vobkent (44,4 mlrd. so'm) va Romitan (43,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari bo'yicha eng past ko'satkichlar Qorovulbozor tumanida kuzatildi. Ushbu tumandagi savdo xizmatlari hajmi 14,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

2019-yil yanvar-may oylarida transport xizmatlari hajmi 724,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,3 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida transport xizmatlarining hajmi va o'sish sur'atlari, %



2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan transport xizmatlari bo'yicha eng katta o'sish Qorovulbozor (25,8 %), Jondor (10,3 %) va Peshko' (7,6 %) tumanlarida kuzatildi.

Sezilarli o'sish sur'atlari Olot (105,7 %) va Romitan (104,4 %) tumanlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 404,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 178,8 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning o'sish omillari sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar hajmining o'sishi, jumladan, pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar hajmining o'sishi bilan izohlanadi. Ularning moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmidagi ulushi 89,5 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %

Moliyaviy xizmatlar - 100,0 %

89,5 %



Sug'urta va nafaqa ta'minoti
bo'yicha xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar

8,1 %



Sug'urta bo'yicha
xizmatlar

2,4 %



Yordamchi moliyaviy
faoliyat

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida innovatsion bank texnologiyalarini joriy etish, jumladan, "raqamli" banklar va ularning chakana xizmatlarni ko'rsatish, masofaviy bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirishga ixtisoslashgan bo'limlarini faoliyatini tashkil etish moliyaviy xizmatlar jadal rivojlanishiga yordam beradi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy to'lov tizimini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2018-yil 19-sentabrdagi PQ-3945-sonli qaroriga binoan Milliy banklararo protsessing markazini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi.

"Xumo" deb nomlangan yangi tizim tijorat banklarining o'zlari to'lovlarni tashkil qilishda ishtirok etishini o'z ichiga oladi. Unda tijorat banklari mijozlarga xolislik dasturlari, bonuslar, overdraft-kreditlari va boshqa zamonaviy mahsulotlarni taklif qilgan holda ular bilan yanada faolroq ishlaydi. Shunday qilib, banklar o'rtasida raqobat kuchayadi.

Yangi bank kartalari ikki rejimda ishlaydi: kontaktli (kartani terminalga kiritib, kodni terish) va kontaktsiz (kartani aktivlashtirish uchun uni terminalga yaqinlashtirish kifoya). Shu bilan birga, barcha mijoz ma'lumotlarining xavfsizligi va PIN-kod so'ramasdan tranzaktsiyalarni amalga oshirish imkoniyati ta'minlanadi.

(<http://infocom.uz/>)


Zamonaviy biznesni amalga oshirish uchun zarur shart-sharoit hozirgi zamon infratuzilmasidan foydalanish hisoblanadi. Yirik bozorlar, Internet-savdo, xom-ashyo, komponentlar va texnologiyalarni izlash, reklama va marketing faoliyati, jarayon va texnologiyalar tizimini boshqarish, shuningdek raqamli tizimlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan ma'lumotlar bazalari zamonaviy tashkilotning majburiy xususiyati hisoblanadi.

2019-yil yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 144,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdag'i xizmatlarning o'sishi 10,2 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,2 % ni tashkil etadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiyligi hajmida nashriyot xizmatlari 1,8 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 0,8 %, dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar - 0,7 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,4 % ni tashkil etadi.

**2019-yil yanvar-may oylarida
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy tarkibida eng kam ulushni televideenie dasturlari ishlab chiqarish, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar tashkil etadi. Joriy davrda ularning hajmi aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida 0,1 % ni tashkil etdi.


Ta'lim tizimining rivojlanishi - O'zbekistondagi eng muhim ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar inson ongi va fikrlashidagi ijobiy o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlaydi va uning ma'nnaviyatini yuksalishiga imkoniyat yaratadi.

2019-yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 133,7 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 44,8 % ni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar orasida Buxoro shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarda uning ulushi 74,0 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiylajmida shahar va tumanlar ulushi, %



Buning sababi, ta'lif muassasalarining katta qismi bu erda joylashganligidir. Buxoro shahrida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 98,9 mlrd. so'mga yetdi.

Ta'lif sohasidagi xizmatlarning yuqori o'sish sur'ati Buxoro tumanida - 163,5 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda o'quv jarayonining sifati va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod metodik materiallari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ma'lumot uchun: bugungi kunda "Kundalik.uz" elektron tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Tizim onlayn tarzda o'qituvchilarini darslarini rejalashtirish, dars jadvallarini tuzish, o'quvchilarning o'zlashtirish darjasini va davomatini elektron jurnal va kundaliklarda qayd etib borish, shuningdek, ta'lif boshqaruv organlari va muassasalarga statistik hisobotlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, tizim ta'lif muassasalari va ta'lif muassasalarini boshqaruv organlariga statistik hisobotlarni shakllantirish vositasidir.

Shu bilan birga, o'quv jarayonini boshqarishning axborot tizimi (EMIS) joriy etildi va maktablar, o'qituvchilar va xodimlar, shuningdek o'quvchilar va ota-onalarning yagona ma'lumotlar bazasi yaratildi. Bundan tashqari, o'quvchilarni qabul qilish, bir mакtabdan boshqasiga ko'chirish va boshqa elektron xizmatlar ko'rsatish uchun elektron tizim ishlаб chiqildi.

Bundan tashqari, o'quvchilarni identifikatsiyalash (NFS, ID-karta) zamонавиј тизимларини јориј этиш ва уларни бoshqa тизимлар (sogliqni saqlash, huquq-tartibot va hokazo.) bilan integratsiya qilish тизимини јориј этиш rejalashtirilgan. Ushbu тизим, zarur hollarda, o'quvchiga qiyinchiliksiz ota-onani yoki tegishli xizmat vakillarini yordamga chaqirish imkonini beradi.

[\(https://kundalik.com/\)](https://kundalik.com/)

2018-yil yanvar-may oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 4,9 % ga o'sdi, hajmi esa 21,3 mlrd. so'mga oshdi va 125,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 87,9 % bilan ustunlik qiladi. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 12,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %




**2019-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mln. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	2915040,5	113,2
Buxoro shahri	1749024,2	116,1
Kogon shahri	96684,1	107,8
tumanlar:		
Olot	72542,7	108,0
Buxoro	102696,6	109,2
Vobkent	99235,4	110,9
G'ijduvon	289590,4	110,2
Kogon	45502,6	119,9
Qorako'l	85468,2	108,2
Qorovulbozor	58930,6	96,4
Peshko'	68719,7	110,8
Romitan	97790,9	109,3
Jondor	78704,9	111,2
Shofirkon	70150,2	109,0

Shahar va tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini aks ettiradi, ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot hajmini (YaHM) xarakterlaydi va hududning byudjet imkoniyatlari va pul oqimlarining hajmini belgilaydi, shu jumladan, xizmatlar sohasining rivojlanishini aks ettiradi.

2019-yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Buxoro shahrida (1749,0 mlrd. so'm) qayd etildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan shahar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati 116,1 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahri (116,1 %), Kogon (119,9 %), Jondor (111,2 %) va Vobkent (110,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Uncha yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Qorovulbozor (96,4 %), Olot (108,0 %) tumanlari va Kogon (107,8 %) shahrida kuzatildi.

Viloyat bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida eng yuqori ulushlarni Buxoro shahri (60,0 %), G'ijduvon (9,9 %), Buxoro (3,5 %), Vobkent (3,4 %) va Romitan (3,4 %) tumanlari egallaydi.

2019-yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida shahar va tumanlarning ulushi, %





Shahar va tumanlar orasida eng kichik ulushlar Kogon (1,6 %), Qorovulbozor (2,0 %), Peshko' (2,4 %), Shofirkon (2,4 %) va Olot (2,5 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1536,3 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 111,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

65-223-79-41

71-230-83-12